

**DETERMINOLOGY OF ECOLOGICAL TERMS: ON THE EXAMPLE OF  
ATMOSPHERE, CLIMATE, POLLUTION TERMS.**

**Shodmonova Xadicha Alisher kizi**

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

2nd year master's student

khadichashodmonova@gmail.com

**EKOLOGIK TERMINLARNING DETERMINOLOGIZATSIYA JARAYONI:  
ATMOSPHERE, CLIMATE, POLLUTION TERMINLARNI MISOLIDA.**

**Shodmonova Xadicha Alisher qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

2-kurs magistranti

[khadichashodmonova@gmail.com](mailto:khadichashodmonova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ingliz tilidagi ekologik terminlarning globallashuv jarayonida tezkorlik bilan umumiste'mol so'zlariga aylanayotgani va o'zbek tiliga ham xuddi shu jarayon qamrovida tarjima orqali kirib kelayotgani qator ekstralingvistik va intralingvistik omillar bilan izohlanadi. Determinologizatsiya hodisasi ekologiya sohasida ham muhim ahamiyat kasb etayotgani qator sabablar bilan keltirilishi mumkin. Ushbu maqolada ingliz tilidagi ba'zi ekologik terminlarning determinologizatsiya jarayoniga uchrashi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, termin, terminologiya, determinologizatsiya, tarjimashunoslik, tilshunoslik, atmosfera, iqlim, ifloslanish.

**Аннотация:** Тот факт, что экологические термины в английском языке быстро становятся общеупотребительными в процессе глобализации и проникают в узбекский язык посредством перевода в рамках того же процесса, объясняется рядом экстралингвистических и интралингвистических факторов. Тот факт, что феномен детерминалогизации также приобретает важное значение в области экологии, может быть объяснен рядом причин. В данной статье рассматривается процесс детерминалогизации некоторых экологических терминов в английском языке.

**Ключевые слова:** экология, термин, терминология, детерминалогизация, переводоведение, лингвистика, атмосфера, климат, загрязнение.

**Abstract:** The fact that environmental terms in English are rapidly becoming common words in the process of globalization and are entering the Uzbek language through translation as part of the same process is explained by a number of extralinguistic and intralinguistic factors. The fact that the phenomenon of determinologization is also gaining importance in the field of ecology can be attributed to a number of reasons. This article discusses the process of determinologization of some environmental terms in English.

**Keywords:** ecology, term, terminology, determinologization, translation studies, linguistics, atmosphere, climate, pollution.

So‘nggi o‘n yilliklarda determinologizatsiya hodisasi eng yuqori darajada namoyon bo‘layotgan leksik maydonlardan biri ekologiya sohasi bo‘lishi tabiiy. Ingliz tilidagi ekologik terminlarning globallashuv jarayonida tezkorlik bilan umumiste‘mol so‘zlariga aylanayotgani va o‘zbek tiliga ham xuddi shu jarayon qamrovida tarjima orqali kirib kelayotgani qator ekstralingvistik va intralingvistik omillar bilan izohlanadi. Determinologizatsiya hodisasi ekologiya sohasida ham muhim ahamiyat kasb etayotgani qator sabablar bilan keltirilishi mumkin. Ulardan biri ekologik muammolarning hozirgi kunda globallashuvi va sotsial ahamiyat kasb etayotganidir, ya‘ni uning asosiy sabablaridan biri jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Yigirmanchi asrning oxiri va yigirma birinchi asr boshlariga kelib iqlim o‘zgarishi, karbonat angidrid emissiyasi, ozon tuynugining yemirilishi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi masalalar sof biologik va kimyoviy fanlar doirasidan chiqib, insoniyatning kundalik tashvishlaridan biriga aylangani rost. Ekologik diskurs bo‘yicha tilshunos Arran Stibbe ham ta‘kidlaganidek, “Ekologik muammolar endilikda nafaqat tabiatshunoslikning, balki jamiyat yashash tarzini belgilab beruvchi madaniy va ijtimoiy nutqning ajralmas qismiga aylandi”<sup>1</sup>. Buning natijasida esa shu muammolarni ifodalab beruvchi terminlarga nisbatan ijtimoiy ehtiyoj sezilarli darajada oshib boradi. Quyida esa ushbu hodisani inglizcha-o‘zbekcha qiyosiy tahlilini ko‘rib chiqamiz. Ingliz tilidagi klassik ekologik terminlarning o‘zbek tiliga o‘girilishida determinologizatsiya va semantik sinxronlik uchun asosan “atmosphere”, “climate” va “pollution” terminlarini tanlab oldik. Ushbu terminlar qat‘iy tabiiy-ilmiy qobiqdan chiqib, ijtimoiy-gumantiar sohalarga ko‘chib o‘tishi, jamoatchilik leksikonida faollashishi va soddalashishi kuzatiladi.

**1. “Atmosphere” (atmosfera) termini.** Ushbu atamaning semantik siljishi orqali determinologizatsiyaning eng yuqori cho‘qqisini ko‘rish mumkin. Qadimgi yunon tilidagi atmos – bug‘, havo va sphaira – shar, qobiq so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan ushbu terminning ilmiy ma‘nosi “yer yoki boshqa sayyoralarini o‘rab turuvchi gazsimon havo qobig‘i”ni bildiradi. Ushbu atmosfera tushunchasi dastlab faqat ekologiya, geografiya va fizika fanlari doirasida qo‘llanilgan. Masalan: The Earth’s atmosphere consists mainly of nitrogen and oxygen (Yer atmosferasi asosan azot va kisloroddan iborat) yoki carbon emissions into the atmosphere (atmosfera ga karbonat angidrid ajralishi). Bu kabi holatlarda termin hech qanday hissiyotga ega bo‘lmagan, faqatgina aniq fizik reallikni ifodalaydi. Mashhur tilshunoslar Jorj Lakoff va Mark Jonsonning kognitiv metaforalar nazariyasiga tayansak, inson o‘zi uchun tushunarsiz va mavhum bo‘lgan ruhiy holatlarni atrof-muhitdagi aniq fizik hodisalarga qiyoslash orqali idrok etadi<sup>2</sup>. Fizik “atmosfera” insoniyatni har taraflama o‘rab turgani va u orqali nafas olingani kabi, jamiyatdagi ijtimoiy-ruhiy vaziyat ham odamni qamrab oladi va uning ichki holatiga bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Shu parallel hodisa orqali “atmosphere” termini determinologizatsiyalashgan deyish mumkin. Buning natijasida so‘zning yangi – “biror joy yoki jamoada hukm surayotgan ruhiy-emotsional holat, kayfiyat, o‘ziga xos muhit” degan ma‘nosi hosil bo‘ldi. Zamonaviy ingliz tilida bu atama ko‘pincha sifatlar bilan birikib, turli xil ijtimoiy-psixologik qutblarni hosil qiladi: a toxic atmosphere (og‘ir muhit). Bu yerda “toxic atmosphere” qat‘iy ekologik ma‘nosidan ko‘ra, ko‘proq jamoalardagi chidab bo‘lmas ruhiy bosimni anglatish darajasiga o‘tgan. Buning qarama qarshisi sifatida esa a friendly atmosphere (do‘stona muhit) birikmasini ham olish mumkin. Termin o‘zbek tiliga asliga muvofiq, ya‘ni xalqaro so‘z sifatida transliteratsiya qilingan bo‘lsa-da, uning determinologizatsiyaga uchragan metaforik ma‘nosi ham to‘liq va sinxron tarzda ko‘chib o‘tgani e‘tiborga loyiq. Bugungi o‘zbek nutqida va adabiy-badiiy tarjimalarda “xonadagi og‘ir atmosfera”, “oilaviy atmosfera” kabi iboralar hech qanday lingvistik izohlarsiz tushuniladi va foydalaniladi. O‘zbek tilidagi badiiy va publitsistik manbalarda ham “atmosfera” so‘zini turli birikmalar holida metaforik ma‘noda uchratish mumkin. Bundan esa ingliz va o‘zbek tillarida ekologik voqelikni sotsial-psixologik voqelikka ko‘chirish modeli bir xil ekanligini anglash

<sup>1</sup> Stibbe A. *Ecolinguistics: Language, Ecology and the Stories We Live By*. – London: Routledge, 2015. – P. 45-47.

<sup>2</sup> Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 25-27.

mumkin, ya'ni ikki til vakillarining tevarak-atrofdagi fizik muhitni inson ruhiyatiga qiyoslashuvi umumiy bo'lib ko'rinadi. Garchi sof o'zbekcha "muhit" yoki "vaziyat" so'zlari ham mavjud bo'lsa-da, aynan "atmosfera" terminining ishlatilishi matnga o'ziga xos hissiy ta'sirchanlik beradi.

**2. "Climate" (iqlim) termini.** Qadimgi yunon tilida klima – qiyalik, og'ish (Yer sathining Quyosh nurlariga nisbatan og'ishi) so'zidan kelib chiqqan ushbu atama asrlar davomida faqat geografiya, iqlimshunoslik va ekologiya fanlari doirasida qo'llanilgan. Uning qat'iy ilmiy ma'nosi "muayyan geografik hududga xos bo'lgan uzoq muddatli ob-havo rejimi va qonuniyatlari"ni bildiradi. Masalan: Tropical climate (tropik iqlim) yoki The ecological consequences of global climate change (global iqlim o'zgarishining ekologik oqibatlarini). Ushbu o'rinlarda atama faqatgina tabiatdagi obyektiv fizik hodisani namoyon qiladi. Atrof-muhit leksikasining ijtimoiy hayotga ko'chishida aynan "barqarorlik" tushunchasi kognitiv ko'priklarni vazifasini o'taydi, ya'ni tabiatda ob-havo (weather) o'zgarishida, iqlim (climate) yillar davomida barqaror holatida turaveradi. Insoniyat o'z jamiyatidagi uzoq muddatli, qat'iy siyosiy va iqtisodiy muhitni tasvirlash ehtiyojini sezganida, aynan shu ekologik barqarorlikni metafora qilishi natijasida iqlim (climate) tushunchasi ham determinologizatsiyalashdi. So'ngra ikkilamchi ma'nosi – "jamiyat, davlat yoki biror davrdagi barqaror siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy yoki ijtimoiy tendensiya va vaziyat" shaklida namoyon bo'ldi. Zamonaviy ingliz tili diskursida ushbu terminni jamiyatning barqarorligi yoki xavf-xatarni anglatuvchi ijtimoiy barometrga aylangan. Iqtisodiy sohalarda economic climate (iqtisodiy vaziyat) yoki axloqiy sohalarda moral climate (jamiyatning ma'naviy muhiti) kabi birikmalarni uchratish mumkin. Ushbu holatlarda geografik ma'no butunlay yo'qolib, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkich yoki ommaviy psixologik holatni anglatuvchi tushuncha yuzaga keladi. "Iqlim" so'zi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, o'zbek tilida ham azaldan sof geografik tushunchani anglatgan<sup>3</sup>. Ammo ingliz tilidagi ekologik terminlarning globallashtirish natijasida inglizcha determinologizatsiyalashgan birikmalar ham o'zbek tiliga kalka uslubida to'g'ridan to'g'ri o'girilmoqda. Tarjimadagi bu sinxronlik terminning dastlabki ilmiy ma'nosidan ko'ra kengroq, mavhum konsepsiyaga aylanganini namoyon qiladi. Rasmiy manbalarda, OAV da ushbu tushunchani geografik ma'nosidan chetlashib, siyosiy yoki ijtimoiy ma'nolarda qo'llanilishi ko'payganini kuzatish mumkin. E'tiborli jihati shundaki, "siyosiy vaziyat" yoki "iqtisodiy sharoit" kabi to'g'ridan-to'g'ri aytsa bo'ladigan muqobillar mavjudligiga qaramay, matnga chuqurroq tahliliy salmoq va bo'yoqdorlik berish uchun tarjimon va jurnalistlar "iqlim" atamasidan ko'proq foydalanadilar. Bu holat ingliz va o'zbek tillari o'rtasida ekologik metaforalarni tarjima qilishda adekvatlik borligini ko'rsatib beradi.

**3. "Pollution" (ifloslanish) termini.** Yuqoridagi "atmosfera" va "iqlim" atamalari muhitning neytral yoki ijobiy holatlarini ham ifodalay oladi, ammo "pollution" (ifloslanish) termini o'zining mutlaq salbiy konnotatsiyasi bilan ajralib turadi. Ushbu atamaning determinologizatsiyasi fizik voqelikdan butunlay uzilib, axborot, ruhiyat va ma'naviyat olamidagi inqirozlarni tasvirlash vositasiga aylanganini ko'rsatadi. Lotin tilidagi polluere (ifloslantirmoq, bulg'amoq) fe'lidan kelib chiqqan bu so'z uzoq vaqt davomida faqat atrof-muhitning fizik va kimyoviy ifloslanishini anglatuvchi qat'iy ekologik termin sifatida qo'llanilgan. Uning dastlabki denotativ ma'nosi – "tabiiy muhitga (suv, havo, tuproq) tirik organizmlar uchun zararli bo'lgan yot modda va chiqindilarning tushishi"ni anglatadi. Masalan: water pollution (suvning ifloslanishi), air pollution (havo ifloslanishi). Ushbu o'rinda atama faqat fizik-kimyoviy o'zgarishni ko'rsatadi. Jamiyat va texnologiyalar kundan kunga rivojlangani sayin insoniyatga xavf soluvchi omillar faqatgina moddiy emas, turli taraflama rakursda kengaymoqda. Axborotning haddan ziyod ko'payishi, shovqin, turli xil yot g'oyalar jamiyat

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. / Таҳрир ҳайъати: Т. Мирзаев ва бошқ. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2006. – Б. 248.

“ekologik iqlimi”ga go’yoki zaharli gazlar singari o‘z ta’sirini ko‘rsata boshladi. Buning oqibatida til yangi tushunchalar uchun yangi so‘z yaratish o‘rniga mavjud ekologik metaforalarga murojaat qiladi. “Pollution” (ifloslanish) atamasining determinologizatsiyalashgan ma’nosi – “inson ongi, ruhiyati yoki jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ortiqcha, yot, zaharli g‘oyalar, axborotlar yoki hodisalar yig‘indisi” shaklida o‘z aksini topdi. Zamonaviy ingliz tilida “pollution” so‘zi intellektual va ruhiy makondagi muammolarni diagnostika qiluvchi atamani ham bildirmoqda. Masalan, axborot muhitida “information pollution” (axborot ifloslanishi) – “yolg‘on, keraksiz va chalg‘ituvchi ma’lumotlarning haddan ziyod ko‘payib, haqiqiy axborotning qadsizlanishi” birikmasi ko‘p uchraydi<sup>4</sup>. Psixologik muhitda esa “noise pollution” (shovqin ifloslanishi) – “shaharlardagi tirbandliklar tufayli shovqin ko‘payib, inson psixologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi” birikmasi yaqqol misol bo‘ladi. Jamiyat qadriyatlarining yemirilishi ma’nosida esa “moral pollution” (ma’naviy zaharlanish) iborasidan foydalaniladi. O‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ushbu “ifloslanish” so‘zi biroz pragmatik adekvatlikni ta’minlashi murakkabligi tufayli “zaharlanish” yoki “buzilish” so‘zlarida kelishi mumkin. OAV va internet ta’sirida information pollution birikmasi o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kalka qilinib, “axborot ifloslanishi” tarzida fan va amaliyotga faol kirib keldi. Xususan, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘ZA) tomonidan e’lon qilingan materiallarda bu termin raqamli salomatlikka tahdid soluvchi xavfli ijtimoiy omil sifatida, o‘zining mutlaq salbiy konnotatsiyasida qo‘llanilmoqda<sup>5</sup>. Bu orqali endi “axborot ifloslanishi” deganda hech qanday jismoniy kirlikni emas, aynan yolg‘on va ortiqcha xabarlar oqimining jamiyatga ijtimoiy zararini tushunish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ekologik terminlarda kuzatilayotgan determinologizatsiya jarayoni shunchaki leksik qatlamlar o‘rtasidagi mexanik so‘z almashinuvi emas, balki til taraqqiyotining qonuniy, uzluksiz va kognitiv holatini namoyish etadi. Ushbu hodisa insoniyatning tevarakatrodagi fizik qonuniyatlar orqali o‘zining murakkab ijtimoiy, iqtisodiy va ruhiy hayotini anglash ehtiyojidan kelib chiqadi. “Atmosphere”, “climate” va “pollution” kabi atamalarning semantik moslashuvi shuni namoyish etadiki, sof ilmiy tushunchalar ommaviy nutqqa ko‘chish jarayonida o‘zining qat’iy obyektivligini yo‘qotib, kuchli konnotativ (ya’ni ijtimoiy-ekspressiv) bo‘yoq va kognitiv metafora xususiyatini kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bray D. A. Information Pollution, Knowledge Overload, and Limited Attention Spans // Journal of the American Society for Information Science and Technology.
2. Uza.uz
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild.
4. Stibbe A. Ecolinguistics: Language, Ecology and the Stories We Live By. – London: Routledge, 2015.
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

<sup>4</sup> Bray D. A. Information Pollution, Knowledge Overload, and Limited Attention Spans // Journal of the American Society for Information Science and Technology. – 2008. – Vol. 59, No. 3. – P. 445-448.

<sup>5</sup> Axborot ifloslanishning oldini olish va raqamli salomatlikni saqlash uchun qanday choralar ko‘rilishi kerak?

[Elektron resurs] // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘ZA) rasmiy sayti. – URL:

<https://uza.uz/oz/posts/axboriy-ifloslanishning-oldini-olish-va-raqamli-salomatlikni-saqlash-uchun-qanday-choralar-korilishi-kerak-478235>